**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**AVAZOV UMARBEK OTABAYEVICH**

# UMUMLASHGAN YUKAVA POTENSIALLI KVANT KINETIK TENGLAMALAR ZANJIRINING YECHIMI

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**
**(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK 519.2, 533.7**

## Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

## Оглавление автореферата дисертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

## Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical - mathematical sciences

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**AVAZOV UMARBEK OTABAYEVICH**

# UMUMLASHGAN YUKAVA POTENSIALLI KVANT KINETIK TENGLAMALAR ZANJIRINING YECHIMI

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**
**(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.2. PhD/FM215 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro Fizikasi inistitutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Rasulova Muhayo Yunusovna**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Kasimov Shakirbay Gapparovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| | **Tursunov Ergash Maxkamovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti** |

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «15» aprel soat 15⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (44 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «1» aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil 2-raqamli reestr bayonnomasi).

**A. S.Sadullayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

**R.M. Jo'rayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.(PhD)

**Sh.A.Alimov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI * MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI *

## KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi (PhD)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida matematika va fizikaning turli sohalarida olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar orasida statistik mexanika matematik modellarini o‘rganish markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Hozirgi kunda tashqi muhit bilan o’zaro ta’sirlashuvchi tizimlar va tuzilmalarning dinamikasini o’rganish uchun turli xil murakkab muammolarni hal qilishda samarali qo‘llaniladigan klassik va kvant kinetik tenglamalar zanjiri yaratilmoqda. Ilm-fanni yanada rivojlantirish, talantli, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, hamda, ularning ijodiy va intellektual salohiyatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish bugungi kunning bosh yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Jumladan, matematik-fizika tenglamalar sohasida samarali ilmiy izlanishlar olib borish uchun potensiallar nazariyasi va kvant mexanikasi bo‘yicha keng ko‘lamda chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunning muhim ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Jahon amaliyotida statistik mexanika umumiy mexanikaning muhim bo’limlaridan biri bo‘lib, fan va texnikaning ko‘plab sohalarida qo‘llaniladi. Statistik mexanika eng ko‘p talab qilinadigan sohalardan biri bu tizim energiyasi va muhitning vaqtga bog’liq o’zgarish dinamikasidir. Bizga ma’lumki, har qanday gaz, suyuqlik va qattiq jismlar (tizimlar) mayda zarrachalardan tashkil topgan bo‘lib, bunday tizimlarni o‘rganishda zarrachalarning holatini bilish muhim hisoblanadi. Chunki, istalgan tizimning tashkil etuvchi zarrachalarning holati va harakatini bilgan holda tizimning energiyasi haqida biror asosli fikrni aytish mumkin. Shuning uchun, zich taqsimlangan ko‘p zarrachali tizimlar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjirining yechimlarini o‘rganish masalasi bugungi kunda statistik mexanika muammolarining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan kvant informatika, nanofizika, kvant texnologiyalar masalalarini sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, matematika va fizika, ular bilan bir qatorda geologiya va geofizika masalalarida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlarga e’tibor kuchaydi. Jumladan, so‘nggi yillarda amaliy matematika, differensial va integro-differensial tenglamalar nazariyasi, matematik modellashtirish nazariyasi, operatorlar nazariyasi, dinamik tizimlar nazariyasi, funksional analiz nazariyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda[1]. Bularning barchasi qaralayotgan masalalarning naqadar dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot ob’ekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada

[1] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 292-son qarori.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2].** Gazlar, suyuqliklar, qattiq jismlar va plazmalarning kinetik holatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, V.A.Steklov nomidagi matematika instituti (Rossiya), V.A.Steklov nomidagi matematika instituti Leningrad bo‘limi (Sankt-Peterburg), Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti OIYAI (Rossiya), Moskva energetika institutining yadro tadqiqotlari Qo‘shma instituti MEI (Rossiya), Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti mexanika ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya), Ukraina Fanlar Akademiyasining matematika instituti (Ukraina), Lund University (Shvetsiya qirolligi), Mexanika va biomexanika instituti BAN (Bolgariya), Eksperimental va nazariy Fizika ilmiy tadqiqot instituti (Kazaxstan), Omsk Davlat Texnika Universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda.

Bugungi kunda, gazlar, suyuqliklar, qattiq jismlar va plazmalar dinamikasini tadqiq etishda eng samarali usul bo‘lgan xolat kinetik tenglamalarini tuzish va ularning yechimlariga asosan so‘nggi tahlil usuli orqali jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan, zaryadlangan zarrachalar ierarxiyasini tasnif etuvchi Bogolyubov-Born-Griin-Kirkvuud-Ivon (BBGKI) tenglamalar zanjirining fizik jarayonlarni aniq ifodalovchi yechimlarini topish uchun tizimni ifodalovchi zichlik bo‘yicha qatorga yoyish usuli ishlab chiqilgan (V.A.Steklov nomidagi matematika instituti), ko‘p zarrali tizimlar taqsimot funksiyasi va zichlik matritsasini aniqlashning yarim gruppa usuli orqali BBGKI klassik kinetik tenglamalar zanjirining yechimi aniqlandi (Nazariy Fizika instituti, Kiev). Shuningdek keyingi yillarda zarrachalarning o‘zaro ta’siri Yukava potensiali ko‘rinishida ifodalanishiga ilmiy ishlarda katta e’tibor qaratilmoqda, kulon va darajali potensiallar superpozitsiyasi energetik spektrini hisoblash uchun tebranishni ifodalovchi usul o‘rganilgan (Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti OIYAI, Dubna), o‘zaro ta’sir Yukava potensiali, shuningdek, Kulon potensiali bilan chiziqsiz integrallanuvchi Xartri tipidagi tenglamalarning radius bo‘ylab simmetrik yo‘nalgan yechimlari aniqlangan (Moskva energetika instituti MEI), umumlashgan yadro-kulonga oid o‘ziga tortuvchi potensial va darajali o‘suvchi tutib turuvchi potensitallarga ko‘ra radial Shredinger tenglamasining diskret spektrlari, to‘lqin funksiyasining laplas ko‘rinishlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda integral almashtirishlar usuli bilan aniqlangan (Moskva Davlat universiteti,

[2] Dissertasiya mavzusiga doir xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili quyidagi manbalarga asosan ajratilgan: Journal of Experimental and Theoretical Physics, Journal of Physics, Journal of Chemical & Engineering Datal, Journal of Mathematical Physics, International Journal Of Modern Physics, http://dx.doi.org/10.1063/1.4742154; http://https://portal.research.lu.se/en/organisations/computational-chemistry.

Moskva), Helmgolts erkin energiyasiga asoslanib va tebranish nazariyasidan foydalangan holda, ikki tomonlama Yukava potentsialiga ega bo‘lgan oddiy suyuqlik modelining ba’zi termodinamik xususiyatlari hisoblab chiqilgan (Tver State University), Yukava tipidagi potentsiallar uchun radial Shredinger tenglamasini yechish uchun asimptotik iteratsiya usuli doirasida istalgan $n$ va $\ell$ qiymatlari uchun bog‘langan holat energiyasining xos qiymatlari olingan (Akdeniz University), umumlashgan Yukava potentsiali bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi zarralar uchun taxminiy maydon nazariyasini ishlab chiqilgan. Ushbu nazariya ilgari sobit zaryad taqsimoti atrofidagi qarshi ionlar uchun ishlab chiqilgan oldingi bo‘linish maydoni nazariyasini yaxshilaydi va kengaytiradi (Lund University), qutbli suyuqliklarning suyuqlik fazasi muvozanati dipolyar Yukava suyuqligi molekulyar modeli yordamida tekshirilgan (Institute of Fluid Physics and Biological Systems (IFLYSIB)), engil sharsimon snaryad yadrolarining og‘ir deformatsiyalangan nishon yadrolari bilan o‘zaro ta’sirining optik potensialining real qismini hisoblash uchun Yukava tipidagi nuklon-nuklonlarning samarali o‘zaro ta’sirining modifikatsiyasi ishlab chiqilgan (Omskiy gosudarstvennыy texnicheskiy universitet), molekulyar dinamikadan foydalangan holda chang zarralarining ikki o‘lchovli tizimining juft korrelyasiya funktsiyasini qo‘shimcha dipol-dipol o‘zaro ta’siri bilan hisoblash natijalari taqdim etilgan (Eksperimental va nazariy Fizika ilmiy tadqiqot instituti, Almata).

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi**. Hozirgi vaqtda, gazlar, suyuqliklar, qattiq jismlar va plazmalarning kinetik jarayonlarini topish masalasi jahon ilm-fani oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalalar statistik fizikaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, ularni yechishda Bolsman, Liuvill, Vlasov, Shredinger, Bogolyubov kinetik tenglamalari keng qo‘llaniladi.

Agar biror tizim energiyasini topish masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, avvalo, bu tizim zarrachalarining taqsimot funksiyasini topish lozim. Chunki tizim zarrachalarining taqsimot funksiyasiga asoslanib, bu tizimning energiyasi haqida biror fikr aytish mumkin.

XIX asr boshida atomlar tuzilishini o‘rganish jarayonida Rezerford, Bor, Eynshteynlar tomonidan atomlarning kvant nazariyasi yaratildi. Kvant nazariyasida zarralar evolyusiyasini ifodalash uchun Bolsman tenglamasi o‘rnida Shredingerning nostatsionar tenglamasi kiritilgan bo‘lib, bu tenglama zarra holatini vaqt va koordinata yoki impuls bo‘yicha aniqlaydi. Keyinchalik atomlar kvant holatini aniqlash uchun Xartri-Fok tenglamasi ham qo‘llanila boshladi.

Statistik fizika fanini rivojlantirishda Luivill tenglamasi katta o‘rin tutadi. Luivill tenglamasi $6N$ fazoda (bu yerda $N$ tizimdagi zarralar soni) gamilton tizimi taqsimot funksiyasining vaqt bo‘yicha evolyusiyasini ifodalaydi. Bu tenglama 1838 yil Luivill tomonidan chiqarilgan matematik tenglama bo‘lib, bu tenglama faqat 1902 yil Gibbs tomonidan statistik fizikaga kiritilib, argumentlari vaqt, koordinata va impuls sifatida qo‘llanilgan. Keyinchalik o‘zaro ta’sirlashuvchi ko‘p zarrali tizimlar evolyusiyasini ifodalovchi tenglama sifatida “Luivill tenglamasi” deb qo‘llanila boshladi.

O‘zaro ta’sirlashuvchi ko‘p zarrali kvant tizimlarining rivojlanish (evolyusiya) tenglamasi zichlik matritsalari uchun kvant Luivill tenglamasi orqali ifodalana boshladi. Bu tenglama fizik adabiyotlarda yana fon-Neyman tenlamasi deb ham ataladi.

Klassik Luivill tenglamasi statistik fizikada muvozanatdagi o‘zaro ta’sirlashuvchi chekli sonli zarralar taqsimoti evolyusiyasini ifodalaydi. Ammo bu tenglamadan fizikada qo‘llaniladigan asosiy tenglamalar bo‘lgan Bolsman, Landau, Vlasov tenglamalarini keltirib chiqarish muammo edi. Bu muammoni, ya’ni Luivill tenglamasidan integral hadli tenglamalarni keltirib chiqarish muammosini N.N.Bogolyubov hal etib 1946-yil o‘zining “Проблемы динамической теории статистической физики” asarida chop etdi. 1949 yil bu muammoni kvant tizimlari uchun “Лекции по статистической физике” asarida hal etdi. Bu muammoni hal etishga asrning birinchi yarmida G‘arb olimlari Born, Grin, Kirkvuud, Ivonlar ham bir qancha ilmiy asarlar yaratdilar, shu sabab bu tenglamalar umumlashtirilib Bogolyubov-Born-Griin-Kirkvuud-Ivon ya’ni BBGKI kinetik tenglamalar zanjiri deb ataladi.

XX asrning ikkinchi yarmida bu ikki, klassik va kvant BBGKI kinetik tenglamalar zanjiri turli fizik jarayonlarni ifodalash uchun ishlatila boshladi. Ularni ishlatish uchun avvalambor bu tenglamalarni yechib, taqsimot funksiyasini yoki zichlik matritsasini aniqlash zarur edi. Chunki bu taqsimotlarni aniqlash fizik jarayonda qatnashayotgan zarralar energiyasi, koordinatasi, impulsi va boshqa kattaliklarning o‘rtacha qiymatini aniqlashga imkon beradi.

Shu sababli taqsimot funksiyalarini aniqlash bo‘yicha Bogolyubov tomonidan tizimni ifodalovchi zichlik bo‘yicha qatorga yoyish usuli ishlab chiqildi va bu qatorning birinchi va ikkinchi hadlari orqali BBGKI klassik kinetik tenglamalar zanjiridan Landau, Vlasov, Bolsman tenglamalari keltirib chiqarildi. Keyingi yillarda Bogolyubov izdoshlari va G‘arb olimlari tomonidan bu usul ko‘p fizik jarayonlarni ifodalashga qo‘llanildi.

Garchi bir zarracha uchun yozilgan Bolsman, Landau, Vlasov tenglamalari ba’zi fizik jarayonlarni ifodalay olsada, haqiqat moddalar o‘zaro bir biri bilan turli ta’sir orqali bog‘langan, vaqt bo‘yicha uzluksiz o‘zgarib turuvchi zarralar tizimidan iboratdir. Zarralar o‘zaro cheksiz energiya orqali bir biriga bog‘langan va shu sababli yagona zarrani tizimdan ajratib olish mushkul. Shu sababli hozirgacha matematik apparatning yo‘qligidan turli-tuman zarrani tizimdan uzish shartlar qo‘yib bir zarra evolyusiyasini o‘rganish bilan chegaralaniladi.

Bu muammoni, ya’ni ko‘p zarrali tizimlarni o‘rganish uchun avvalombor ko‘p zarrali tizimlar taqsimot funksiyasi va zichlik matritsasini aniqlashning matematik usulini yaratish muammosi paydo bo‘ldi. Bu muammoni yechishda muhim qadam akademiek D.Ya.Petrina va o‘quvchilari tomonidan qo‘yildi. 1985 yil D.Ya.Petrina va A.K.Vidibida tomonidan yarim gruppa usuli orqali BBGKI klassik kinetik tenglamalar zanjirining yechimi aniqlandi. 1976 yil M.Yu.Rasulova tomonidan BBGKI kvant kinetik tenglamalari zanjirining Kato shartini bajaruvchi potensiallar uchun  yarim gruppa usuli orqali yechimi aniqlandi. Bu usul keyinchalik D.Ya.Petrinaning o‘quvchilari va boshqa matematik olimlar tomonidan turli fizik jarayonlar uchun rivojlantirildi. Bu usul shuningdek turli sortdagi zarralar tizimi uchun rivojlantirilgan.

1980 yilda BBGKI kinetik tenglamalar zanjiri uchun M.Yu.Rasulova tomonidan Bogolyubovning qatorga yoyish usuli zich tizimlar uchun mukammallashtirib qatorning istalgan hadini aniqlashga imkon beruvchi usul yaratildi. 2007 yil M.Brokate va M.Yu.Rasulova tomonidan Kulon potensiali bilan ta’sirlashuvchi kvant tizimlari evolyusiyasini ifodalovchi BBGKI kvant kinetik tenglamalari yechimi, 2013 yil N.N.Bogolyubov, M.Yu.Rasulova, U.O.Avazov tomonidan umumlashgan Yukava potensiali bilan ta’sirlashuvchi zarralar tizimini ifodalovchi, 2016 yilda M.Brokate va M.Yu.Rasulova tomonidan o‘zaro kantakt potensiali (delta funksiya orqali ifodalanuvchi potensial) orqali o‘zaro ta’sirlashuvchi zarralar tizimlari uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjiri yechimlari aniqlandi. N.N.Bogolyubov, M.YU.Rasulova va U.O.Avazov tomonidan zichlik matritsasi va korrelyasion matritsalar orasidagi D.Ryuel tomonidan kiritilgan bog‘lanishdan foydalanib BBGKI kvant kinetik tenglamalari asosida korrelyasion matritsalar uchun kinetik tenglamalar zanjiri keltirib chiqarildi va bu zanjir yechimi aniqlandi. Bu korrelyasion matritsalar uchun chiqarilgan tenglamalar zanjiri orqali fizikada ko‘p qo‘llaniladigan nochiziq Shredinger tenglamasining tashqi muhit bilan ta’sirlashuvini ifodalovchi Gross-Pitaevskiy tenglamasining ko‘p zarrali tizim uchun ifodasi BBGKI kvant kinetik tenglamalari ekanligi isbotlangan. Keyingi yillarda bu natijalar M.Yu.Rasulovaning kriptografiyaga bag‘ishlangan ishlarida keng qo‘llanilmoqda.

**Dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muasssasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Fan va texnika davlat komitasining F-2.1.56 (2000-2005), O‘zR FA Yadro Fizikasi institutining FA-F1-F003+F067 “Ko‘p zarrachali kvant tizimlarning kinetik va magnit xossalarini o‘rganish” (2007-2011 yillar) va OT-F2-18 “Noturg‘un ko‘p zarrachali tizimlarning elektromagnit xossalarini nazariy va matematik fizika usullari bilan tekshirish” (2017-2020 yillar) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.**

Ushbu dissertatsiya ishi noturg‘un o‘zaro umumlashgan Yukava potensiali bilan ta’sirlashuvchi zarrachalar tizimlari uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjirining yechimining mavjudligini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.**

Noturg‘un o‘zaro umumlashgan Yukava potensiali bilan ta’sirlashuvchi zarrachalar tizimlari uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjirining yechimini mavjudligini isbotlash;

Noturg‘un o‘zaro umumlashgan Yukava potensiali bilan ta’sirlashuvchi zarrachalar tizimlari rivojini ifodalovchi korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjirini ifodalash va uning yechimini aniqlash;

Zich taqsimlangan ko‘p sortli noturg‘un zarrachalar tizimlari uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjirini ifodalash va yechimini topish;

Zich taqsimlangan ko‘p sortli zarrachalar tizimlari uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjirining soliton yechimini topishdan iborat.

**Tadqiqotning ob’ekti.**

BBGKI kvant kinetik tenglamalari zanjiri, ko‘p sortli zich taqsimlangan zarrachalar tizimlari uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjiri, korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjiri, zichlik matritsasi, tizim Gamil’toniani, korrelyasion matritsa, solitondan iboratdir.

**Tadqiqotning predmeti.**

BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjiri, korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjiri, umumlashgan Yukava potensiali, tizim Gamil’toniani, korrelyasion matritsa, zichlik matritsasi va korrelyatsion matritsalar orachidagi bog‘lanish, soliton, shuningdek, matematik induksiya, chiziqli bo‘lmagan integro-differensial tenglamalar, matematik fizika nazariyasi, operator va integral tenglamalar kiradi.

**Tadqiqot usullari.**

Dissertatsiya ishidagi masalalarni yechishda, asosan, analitik usuldan foydalanilgan. Shuningdek, kvant nazariyasidan, yarimgruppalar nazariyasidan, differensial tenglamalar nazariyasidan, jumladan, integro-differensial tenglamalar sistemasini yechishda ketma-ket yaqinlashish usulidan ham keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

Chegaralangan sohada bir xil taqsimlangan o‘zaro umumlashgan Yukava potensiali bilan ta’sirlashuvchi zarrachalar tizimlari evolyutsiyasini ifodalovchi Bogolyubov-Born-Griin-Kirkvuud-Ivon kvant kinetik tenglamalar zanjirining yechimi aniqlangan;

korrelyatsion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjiri maxsus yo‘l bilan keltirib chiqarilgan va uning yechimi yordamchi lemmalar orqali topilgan;

o‘zaro Yukava potensiali ko‘rinishida ta’sirlashuvchi, ko‘p sortli zich taqsimlangan zarrachalar tizimi uchun Bogolyubov-Born-Griin-Kirkvuud-Ivon kvant kinetik tenglamalar zanjiriga qo‘yilgan Koshi masalasi yechilgan;

zich taqsimlangan ko‘p sortli zarrachalar tizimlari uchun Bogolyubov-Born-Griin-Kirkvuud-Ivon kvant kinetik tenglamalar zanjirining soliton yechimi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Nazariy jixatdan, olingan natijalardan gazlar, suyuqliklar, qattiq jisimlar va plazmalarning kinetik jarayonlarini tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Bogolyubov kinetik tenglamalar zanjirining yechimi bo‘lgan zichlik matritsasi yordamida ko‘p zarrali tizimning xarakterlovchi o‘rtacha fizik kattaliklarini aniqlash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** yarim gruppalar nazariyasi usulidan foydalanilganligi, korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjiri, matematik mulohazalarning va isbotlarning qat’iyligi bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari olingan dissertatsiya natijalari impakt-faktorga ega va nufuzli ilmiy jurnallarda chon etilgan hamda Xalqaro va Respublika konfrensiyalarida ma’ruza qlinganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ko‘p zarrachali tizimlarning fizik, magnitik xossalarini o‘rganishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gazlar, suyuqliklar, qattiq jismlar va plazmalarning kinetik jarayonlarini o‘rganish va tadqiq etishda asos sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo‘nalishda amaliyotga joriy qilingan:

chegaralangan sohada bir xil taqsimlangan o'zaro umumlashgan Yukava potensiali bilan ta'sirlashuvchi zarrachalar tizimlari evolyutsiyasini ifodalovchi kvant kinetik tenglamalar zanjirining yechish usullaridan YOFA-Ftex-2018-78-sonli «Amenabel bo'lmagan graflarda dinamik va termodinamik sistemalar» mavzusidagi fundamental loyihada Keli daraxtida SOS modeli uchun davriy bo'lmagan Gibbs o'lchovlarini mavjudligini tadqiq qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining 2024 yil 25 dekabrdagi 2/467-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi beshinchi tartibli Keli daraxtida SOS modeli uchun tuzilgan funksional tenglamalar sistemasini yechimi mavjudligini isbotlash imkonini bergan;

BBGKI tenglamalar zanjirining soliton yechimini topish bilan bog‘liq olingan natijalardan F-2021-440 «Tarmoqlangan past o‘lchamli tuzilmalarda kvant zarrachalar dinamikasi va kvant tashilishi: Shaffof kvant tarmoqlarini modellashtirish va loyihalash» (2021-2026 y.) mavzusidagi fundamental loyihada zich taqsimlangan zarrachalar sistemasi delta funksiyasi ko‘rinishidagi potentsial bilan o‘zaro ta’sir qiladigan BBGKY kvant kinetik tenglamalar zanjirini qurish uchun foydalanilgan (Toshkent Kimyo xalqaro universitetining 2024 yil 25 dekabrdagi 01/2668-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalar va taklif qilgan usuldan foydalanish tarmoqlangan tuzilmalar bo‘yicha aniqlangan chiziqli bo‘lmagan to‘lqin tenglamalarining soliton yechimlarini olishda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.**

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro Fizika instituti “Ko‘p zarrachalar tizimlari” laboratoriyasi seminarlarida muhokama qilingan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni, g‘oyalari va natijalari bo‘yicha bir qator xalqaro ilmiy-amaliy va ilmiy–texnik anjumanlarda ma’ruzalar qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan. Jumladan, “Quantum theory, partial differential equations of Mathematical physics and their applications” Tashkent, (2003), “Recent Trends in Kinetic Theory and its Applications”, Kiev (2004), “Nuclear Science and its Application”, Samarqand (2012), Fransiyaning Lion universitetida o‘tkazilgan statstik mexanika bo‘yicha o‘tkazilgan (2016), Qohiradagi Zevoll fan va texnologiya shahridagi matematika va axborot fanlari bo‘yicha o‘tkazilgan, Misr (2017), “9-International Sympozium on Image processes and wavelet method”, Kars, Turkey (2017), Kiota universiteti Nazariy Fizika institutida bo‘lgan (2023) “Noturg‘un statistik mexanikaning kelajagi” nomli konferensiyada aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. SHulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 7 ta maqola xorijiy 3 ta maqola Respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.**

Ushbu dissertatsiya ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochilgan, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Umumlashgan Yukava potensiali bilan o'zaro ta'sirlashuvchi ko'p zarrali kvant tizimlarning evolyusiyasi haqida"** deb nomlangan birinchi bobida, chegaralangan sohada joylashgan, umumlashgan Yukava potensiali orqali o'zaro ta'sirlashuvchi, massasi va zaryadi bo'yicha aynan o'xshash bo'lgan *N* ta zarralarning kvant sistemasi evolyusiyasi tadqiq qilingan.

Ushbu bobda umumlashgan Yukava potensiali $\phi(r)=\sum_{k=0}^{N} r^{k-1}\int_{\mu_0}^{\infty} e^{-\mu r} dw_k(\mu)$ (bu erda, $w_k(\mu)$-to'liq o'zgaruvchanlik bilan cheklangan o'lchov) bilan ta'sirlashuvi massalari *m*, zaryadlari *e* bo'lgan $V=|\Lambda|$hajmli chegaralangan sohadagi chekli sondagi zarralar kvant tizimi dinamikasini ifodalovchi BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjirining norelyativistik kvant nazariyasi doirasidagi yechimi aniqlanadi. Shu maqsadda BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjiri:

$$
\begin{aligned}
i\frac{\partial\rho_s^{\Lambda}(t,x_1,\dots,x_s;x_1',\dots,x_s')}{\partial t} &= [H_s^{\Lambda},\rho_s^{\Lambda}](t,x_1,\dots,x_s;x_1',\dots,x_s')+\\
&+\frac{N}{V}\left(1-\frac{s}{N}\right)Sp_x\sum_{1\le i\le s}(\phi_{i,s+1}(|x_i-x|)-\phi_{i,s+1}(|x_i'-x|))\times\\
&\times\rho_{s+1}^{\Lambda}(t,x_1,\dots,x_s,x;x_1',\dots,x_s',x),
\end{aligned}
\tag{1.1}
$$

uchun boshlang'ich shartli:

$$\rho_s^{\Lambda}(t,x_1,\dots,x_s;x_1',\dots,x_s')|_{t=0}=\rho_s^{\Lambda}(0,x_1,\dots,x_s;x_1',\dots,x_s') \tag{1.2}$$

Koshi masalasi yechiladi.

Ko'rilayotgan tizim Gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H_s^{\Lambda}(x_1,\dots,x_s)=\sum_{1\le i\le s}\left(-\frac{1}{2m}\Delta_{x_i}+u^{\Lambda}(x_i)\right)+\sum_{1\le i<j\le s}\Phi_{i,j}(|x_i-x_j|)$$

bu yerda $T_i=-\frac{\hbar^2\Delta_{x_i}}{2m}$ $i$ – zarraning kinetik energiyasi, $u^{\Lambda}(x_i)$ – sohasida tizimni saqlaydigan tashqi maydon energiyasi bo'lib, u quyidagicha aniqlangan:

$$u^{\Lambda}(x_i)=\begin{cases}0, \text{ agarda } x_i\in\Lambda\\ +\infty, \text{ agarda } x_i\notin\Lambda \text{ bo'lsa}\end{cases}$$

$\Phi_{i,j}$ esa umumlashgan Yukava potensiali.

Quyidagicha belgilashlarni kiritaylik:

$$(\mathcal{T},\rho)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)=\left[\sum_{1\le i\le s}T_i,\rho_s\right](t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s);$$

$$(\mathsf{U}\rho)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)=\left[\sum_{1\le i<j\le s}\phi_{i,j},\rho_s\right](t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s);$$

$$(\mathcal{H}^\Lambda\rho^\Lambda)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)=[H_s^\Lambda,\rho_s^\Lambda](t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s);$$

$$\left(D_x^\Lambda\rho^\Lambda\right)_s(x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)=\rho_{s+1}^\Lambda(x_1,...,x_s,x;x'_1,...,x'_s,x);$$

$$(A_x^\Lambda\rho^\Lambda)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)=\frac{N}{V}\left(1-\frac{s}{N}\right)\times$$

$$\times\sum_{1\le i\le s}(\phi_{i,s+1}(|x_i-x|)-\phi_{i,s+1}(|x'_i-x|))\rho_s^\Lambda(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s,);$$

$$\rho^\Lambda(t)=\{\rho_0,\rho_1^\Lambda(t,x_1;x'_1),.........,\rho_s^\Lambda(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s),...\},\quad \mathrm{s}=1,2,...,$$

U holda, (1.1), (1.2) masala quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\begin{gathered}i\frac{\partial}{\partial t}\rho_s^\Lambda(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)=(\mathcal{H}^\Lambda\rho^\Lambda)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)+\\+\int_\Lambda\left(A_x^\Lambda D_x^\Lambda\rho^\Lambda\right)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)dx,\end{gathered}\tag{1.3}$$

$$\begin{gathered}\rho_s^\Lambda(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)|_{t=0}=\rho_s^\Lambda(0,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)\equiv\\ \equiv\rho_s^\Lambda(x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s).\end{gathered}\tag{1.4}$$

Koshi masalaning yechimini topish uchun yarimgruppalar usulidan foydalanamiz:

$L_2(\Lambda^s)$ fazo $\psi_s^\Lambda(x_1,\cdots,x_s),\ x_i\in R^3(\Lambda)$ funksiyaning Gilbert fazosi, va $B_s^\Lambda$ fazo esa $L_2(\Lambda^s)$ da musbat aniqlangan, o‘z-o‘ziga akslantiruvchi $\rho_s^\Lambda(x_1,\cdots,x_s;x'_1,\cdots,x'_s)$ operatorlarning banax fazosi bo‘lsin

$$(\rho_s^\Lambda\psi_s^\Lambda)(x_1,\cdots,x_s)=\int_\Lambda\rho_s^\Lambda(x_1,\cdots,x_s;x'_1,\cdots,x'_s)\psi_s^\Lambda(x_1,\cdots,x_s)dx'_1\cdots dx'_s$$

Operatorning normasi quyidagicha aniqlangan:

$$\left|\rho_s^\Lambda\right|_1=\sup\sum_{1\le i\le\infty}\left|\left(\rho_s^\Lambda\psi_i^\Lambda,\varphi_i^\Lambda\right)\right|$$

bu yerda yuqori chegara, $L_2(\Lambda^s),\ s\ge1$ va $\left|\rho_0^\Lambda\right|_1=\left|\rho_0^\Lambda\right|$ da zich taqsimlangan, ikki marta differensiallanuvchi chekli (finit) $\{\psi_i^s\}$ va $\{\varphi_i^s\}$ funksiyalarning barcha ortonormallashgan tizimlari bo‘yicha olinadi.

Faraz qilaylik, $\rho_s^\Lambda(t)$ va $H_s^\Lambda$ operatorlar $L_2(\Lambda^s)$ fazoda nolga teng chegaraviy shart bilan ta'sir qilsin.

$B^\Lambda$ quyidagi yadroviy operatorlar ketma-ketligining Banax fazosi bo'lsin:

$$\rho^\Lambda=\{\rho_0^\Lambda,\rho_1^\Lambda(x_1;x_1'),...,\rho_s^\Lambda(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'),...\},\ \rho_s^\Lambda\subset B_s^\Lambda$$

bu yerda $\rho_0^\Lambda$ kompleks, $s_0$ – chekli son, $s>s_0$ da $\rho_s^\Lambda(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')=0$,

$B^\Lambda$ fazoda norma quyidagi ko'rinishda bo'lsin: $\left|\rho^\Lambda\right|_1=\sum_{s=0}^{\infty}\left|\rho_s^\Lambda\right|_1$.

$\phi(r)=\sum_{k=0}^{N}r^{k-1}\int_{\mu_0}^{\infty}e^{-\mu r}dw_k(\mu)$ umumlashgan Yukava potensiali bo'lib, $-\Delta+\phi$ Gamiltonian $D(-\Delta)$ sohada muhim o'z-o'ziga akslantiruvchi (существенное самосопряженный) operator bo'ladi.

Aytaylik, $\tilde{B}_s^\Lambda$ – tizim, $B_s^\Lambda$ fazoning $B_s^\Lambda\cap D(H_s^\Lambda)\otimes D(H_s^\Lambda)$ qismidagi "yaxshi" elementlarining zich tizimi bo'lsin, bu yerda $\otimes$ – algebraik tenzor ko'paytma va $D(H_s^\Lambda)$ esa $H_s^\Lambda$ operatorning aniqlanish sohasini anglatadi.

$B^\Lambda$ fazada quyidagi operatorlarni ko'rib chiqamiz:

$$(\Omega^\Lambda\rho^\Lambda)_s(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')=\frac{N}{V}\left(1-\frac{s}{N}\right)\times$$

$$\times\int_\Lambda\sum_i\rho_{s+1}^\Lambda(x_1,...,x_s,x;x_1',...,x_s',x)g_i^1(x)\tilde{g}_i^1(x)dx,$$

$$U^\Lambda(t)\rho_s^\Lambda(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')=$$

$$=(e^{\Omega^\Lambda}e^{-iH^\Lambda t}e^{-\Omega^\Lambda}\rho^\Lambda e^{iH^\Lambda t})_s(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'), \tag{1.5}$$

U holda BBGKI zanjiriga qo'yilgan Koshi masalasi uchun quyidagi teorema o'rinli bo'ladi:

**Teorema.** $N$ zarrachali tizimlar zarrachalari orasidagi potensial $\phi(r)=\sum_{k=0}^{N}r^{k-1}\int_{\mu_0}^{\infty}e^{-\mu r}dw_k(\mu)$ umumlashgan Yukava potensiali ko'rinishiga ega bo'lsin. U holda, $B^\Lambda$ fazoda zich taqsimlangan $\tilde{B}^\Lambda$ fazodagi infinitezimal (cheksiz kichik) generatori $-i(\mathcal{H}^\Lambda+Sp_xA_x^\Lambda D_x^\Lambda)$ bilan ustma-ust tushadigan, $U^\Lambda(t)$ operatorlar $B^\Lambda$ fazoda kuchli uzluksiz chegaralangan operatorlarning yarimgruppasini aniqlaydi.

***Isboti:*** Teorema isboti to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. $U^\Lambda(t)$ operator $B^\Lambda$ fazada chegaralanganligi,
2. $B^\Lambda$ fazoda $U^\Lambda(t)$ operator kuchli uzluksizligi,

3. $B^{\Lambda}$ fazoda $U^{\Lambda}(t)$ operator gruppa xossalarini qanoatlantirishi, ya'ni $U^{\Lambda}(t_1)U^{\Lambda}(t_2)\rho^{\Lambda} = U^{\Lambda}(t_1+t_2)\rho^{\Lambda}$ tenglik o'rinli bo'lishi,

4. $U^{\Lambda}(t)$ operatorning $B^{\Lambda}$ fazoda aniqlangan generatori $\widetilde{B}^{\Lambda}$ fazodagi $-i(\mathcal{H}^{\Lambda} + Sp_x A_x^{\Lambda} D_x^{\Lambda})$ bilan ustma-ust tushishi isbotlangan.

Demak, $\rho_s^{\Lambda}(,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s') \subset \widetilde{B}_s^{\Lambda}$ uchun, (1.5) – (1.6) Koshi masalasining yagona yechimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\rho_s^{\Lambda}(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s') = \left(U^{\Lambda}\left(t\right)\right)\rho^{\Lambda})_s(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s') =$$

$$= \left(e^{\Omega(\Lambda)}e^{-H^{\Lambda}t}e^{-\Omega(\Lambda)}\rho^{\Lambda}e^{iH^{\Lambda}t}\right)_s\left(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'\right)$$

$U^{\Lambda}(t)$ gruppaning cheksiz kichik generatori ushbu (1.1) BBGKI zanjirining o'ng tomoniga mos tushishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Korrelyasion matritsalar uchun umumlashgan Yukava potensiali bilan ta'sirlashuvchi zarrachalar tizimi kvant kinetik tenglamalari ierarxiyasining yechimi"** deb nomlangan bo'lib, dissertatsiyaning ushbu bobida korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjiri hosil qilingan. Noturg'un o'zaro umumlashgan Yukava potensiali bilan ta'sirlashuvchi zarrachalar tizimi uchun BBGKI kvant kinetik tenglamalar zanjirining yechimi mavjudligi isbotlangan.

BBGKI zanjirini plazma fizikasiga qo'llash, nochiziq Shredinger va Gross-Pitaevskiy tenglamalarini turli fizik jarayonlarga tatbiqi, hamda kvant ma'lumotlari va kvant hisoblashlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda, korrelyasion matritsalar va ularning xossalarini o'rganishning ham ahamiyati oshdi.

Korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjirini BBGKI kinetik tenglamalar zanjiridan

$$i\frac{\partial}{\partial t}\rho_s^{\Lambda}(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s') = \left(\mathcal{H}^{\Lambda}\rho^{\Lambda}\right)_s(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s') +$$

$$+\int_{\Lambda}\left(A_x^{\Lambda}D_x^{\Lambda}\rho^{\Lambda}\right)_s(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')dx. \qquad (2.1)$$

keltirib chiqarish uchun quyidagi zichlik matritsalar ketma-ketligi

$$\rho(t) = \left\{\rho_0, \rho_1^{\Lambda}(t,x_1;x_1'),...,\rho_s^{\Lambda}(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'),...\right\} \qquad (2.2)$$

va korrelyasion matritsalar ketma-ketligi

$$\varphi = \left\{\varphi_0, \varphi_1(x_1;x_1'),...,\varphi_s(x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'),...\right\}, \quad s \geq 1 \qquad (2.3)$$

orasidagi bog'lanishdan foydalanamiz.

$$\rho(t) = \Gamma\varphi(t) = I + \varphi(t) + \frac{\varphi(t)*\varphi(t)}{2!} + ... + \frac{\left(*\varphi(t)\right)^n}{n!} + ..., \qquad (2.4)$$

$\Gamma$ ifodalashga teskari $\Gamma^{-1}$ mavjud (logarifmga to'g'ri keladi)

$$\Gamma^{-1}\left(I+\varphi'(t)\right)=I+\varphi'(t)+\frac{\varphi'(t)*\varphi'(t)}{2!}+\ldots+\frac{\left(*\varphi'(t)\right)^{n}}{n!}+\ldots,\quad \varphi'(t)\in B_{+}^{\Lambda}$$

bu yerda

$$(\varphi*\varphi)\left(X\right)=\sum_{Y\subset X}\varphi(Y)\varphi(X/Y) \tag{2.5}$$

$X=(x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s), Y=(x_1,...,x_{s'};x'_1,...,x'_{s'}),\quad s'\in s, s=1,2,...,N$ va

$$I*\varphi=\varphi,\qquad (*\varphi)^{s}=\underbrace{\varphi*\varphi*...*\varphi}_{s\ \text{та}},\quad s\ \text{marta;}$$

$$\Gamma\left(-\varphi(t)\right)*\Gamma\left(\varphi(t)\right)=I \tag{2.6}$$

(2.4) $B_{+}^{\Lambda}$ fazosi elementlarini $I+B_{+}^{\Lambda}$ fazosi elementlari bilan ifodalash imkonini beradi.

(2.4)dan foydalanib quyidagi munosabatlar aniqlanadi

$$\frac{\partial}{\partial t}\Gamma\varphi(t)=\frac{\partial}{\partial t}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t),\qquad \mathcal{T}\Gamma\varphi(t)=\mathcal{T}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t), \tag{2.7}$$

$$D_x^{\Lambda}\Gamma\varphi(t)=D_x^{\Lambda}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t),\qquad A_x^{\Lambda}\Gamma\varphi(t)=A_x^{\Lambda}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t), \tag{2.8}$$

$$A_x^{\Lambda}D_x^{\Lambda}\Gamma\varphi(t)=A_x^{\Lambda}D_x^{\Lambda}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t)+A_x^{\Lambda}\varphi(t)*D_x^{\Lambda}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t), \tag{2.9}$$

$$\Phi\Gamma\varphi(t)=\Phi\varphi(t)*\Gamma\varphi(t),\qquad \mathsf{W}\Gamma\varphi(t)=\mathsf{W}\varphi(t)*\Gamma\varphi(t), \tag{2.10}$$

bu yerda $\mathsf{W}(\varphi,\varphi)$ ni quyidagi ko‘rinishda aniqlash mumkin:

$$(\mathsf{W}(\varphi,\varphi))_s(X)=\sum_{Y\subset X}\Phi(Y;X\setminus Y)\varphi(Y)\varphi(X\setminus Y), \tag{2.11}$$

$$(\Phi(Y;X\setminus Y)=\sum_{x_i\in Y,\,x_j\in X\setminus Y}\phi_{i,j}(\left|x_i-x_j\right|)-\sum_{x'_i\in Y,\,x'_j\in X\setminus Y}\phi_{i,j}(\left|x'_i-x'_j\right|)$$

(2.7) - (2.10) larni (2.1) tenglamaga qo‘yib quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}i\frac{\partial}{\partial t}\varphi_s^{\Lambda}(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)&=\left(H^{\Lambda}\varphi_s^{\Lambda}\right)(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)+\\&+\frac{1}{2}\mathsf{W}\left(\varphi^{\Lambda},\varphi^{\Lambda}\right)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)+\int_{\Lambda}A_x^{\Lambda}D_x^{\Lambda}\varphi_s^{\Lambda}(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)dx+\\&+\int_{\Lambda}\left(A_x^{\Lambda}\varphi^{\Lambda}*D_x^{\Lambda}\varphi^{\Lambda}\right)_s(t,x_1,...,x_s;x'_1,...,x'_s)dx,\end{aligned} \tag{2.12}$$

bu tenglama korrelyasion matritsalar uchun kvant kinetik tenglamalar zanjirini ifodalaydi.

Bu tenglamalar zanjirini yechish uchun quyidagi munosabatdan foydalanamiz

$$\Gamma e^{\Omega}\varphi=e^{\Omega}\Gamma\varphi, \tag{2.13}$$

Biz quyidagicha kvant operatorini kiritaylik:

$$U'^{\Lambda}(t)\varphi_s^{\Lambda}(0,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s') = \Gamma\exp(\Omega^{\Lambda})\Gamma^{-1}\times$$
$$\times\left[\exp\left(iH^{\Lambda}t\right)\Gamma\left(\exp(-\Omega^{\Lambda})\Gamma^{-1}\Gamma\,\varphi_s(0,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')\right)\exp\left(-iH^{\Lambda}t\right)\right]$$

U holda quyidagi teorema o‘rinli bo‘ladi:

**Teorema**. Agar tizim zarrachalari orasidagi potensial $\phi(r)=\sum_{k=0}^{N} r^{k-1}\int_{\mu_0}^{\infty} e^{-\mu r} dw_k(\mu)$ umumlashgan Yukava potensiali bo‘lsa, u holda $B^{\Lambda}$ fazoning hamma joyda zich bo‘lgan $\tilde{B}_+^{\Lambda}$ fazodagi infinitezimal generatori $-i\left(H^{\Lambda}+\frac{1}{2}W^{\Lambda}+\int_{\Lambda} A_x^{\Lambda}D_x^{\Lambda}dx+\int_{\Lambda} A_x^{\Lambda}*D_x^{\Lambda}dx\right)$ bilan ustma-ust tushadigan $U'^{\Lambda}(t)$ operatorlar, $B^{\Lambda}$da kuchli uzluksiz, chegaralangan operatorlarning yarimgruppasini aniqlaydi.

*Bu teorema I bobdagi teorema kabi, to‘rt bosqichda isbotlanadi.*

(2.4) bog‘lanish va $\Gamma^{-1}\Gamma\varphi(t)=\varphi(t)$ ekanligidan foydalanib, zichlik matritsasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\rho_s^{\Lambda}\left(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'\right)=\Gamma\varphi_s^{\Lambda}\left(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'\right)=\Gamma\exp(\Omega^{\Lambda})\Gamma^{-1}\times$$
$$\times\left[\exp\left(iH^{\Lambda}t\right)\Gamma\left(\exp(-\Omega^{\Lambda})\Gamma^{-1}\,\Gamma\varphi_s^{\Lambda}(0,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'\right)\exp\left(-iH^{\Lambda}t\right)\right]= \qquad (2.14)$$
$$=\Gamma\exp(\Omega^{\Lambda})\Gamma^{-1}\left[\exp\left(iH^{\Lambda}t\right)\Gamma\left(\exp(-\Omega^{\Lambda})\,\varphi_s^{\Lambda}(0,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s'\right)\exp\left(-iH^{\Lambda}t\right)\right].$$

(2.14) ni $G^{-1}$ ga nisbatan almashtirish yordamida quyidagini xosil qilamiz:

$$\varphi_s^{\Lambda}(t,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')=\exp(\Omega^{\Lambda})\Gamma^{-1}\left[\exp\left(iH^{\Lambda}t\right)\Gamma\left(\exp(-\Omega^{\Lambda})\times\right.\right.$$
$$\left.\left.\times\varphi_s(0,x_1,...,x_s;x_1',...,x_s')\exp\left(-iH^{\Lambda}t\right)\right]\ . \qquad (2.15)$$

